

TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR KADRLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ULAR FAOLIYATINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Sitora B. Saloxiddinova*¹

Annotatsiya: *Mamlakatimizda yetakchi kadrlar faoliyati samaradorligini oshirish, faoliyatini baholash orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada yangi izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan yetakchilarimiz uchun ko'plab sharoit va qulayliklar, imtiyozlar yaratilgan. Ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylandi. Ana shu tizimning asosiy bo'g'ini vazifasini o'tayotgan yetakchi kadrlar esa bu islohotlarning asosini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qarorlar, qonunlar qabul qilinmoqda. Uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida boshqaruv kadrlari faoliyatini tashkil etish va uzluksiz malaka oshirish kurslarini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.*

Prezident Sh.M. Mirziyoevning ta'kidlashicha, "qobiliyatini aniqlash, o'qitish, o'z ishini yaxshi bajarishga o'rgatish bo'yicha keng qamrovli tizim yo'qligi sababli ayrim rahbar kadrlar o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olmayapti".

Albatta, har qanday sohaning yuksalishi va rivojlanishida yetakchi kadrlarning o'rni beqiyos. Binobarin, ta'lim tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy andozalarga moslashtirish asosini yetakchi kadrlar faoliyatini takomillashtirish va takomillashtirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar o'zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan kam emas. Chunki bu boradagi islohotlarni yanada keng miqyosda davom ettirish davr talabidir.

Kalit so'zlar : *rahbar kadrlar, samaradorlik va samaradorlik faoliyatini baholash.*

Mamlakatimizda rahbar kadrlar samaradorligini oshirish va ular faoliyatini baholash orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohada yangidan-yangi izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarimiz uchun ko'plab shart-sharoit va qulayliklar, imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda. Ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Bu tizimning asosiy bo'g'ini sifatida faoliyat olib borayotgan rahbar kadrlar esa, ana shu islohotlar asosini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qaror va qonunlar qabul qilinmoqda. Rahbar kadrlar faoliyatini tashkil etish va uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida doimiy malaka oshirish kurslarini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.

¹ Graduate school of
business and entrepreneurship, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: sitorasalokhiddinova@gmail.com



Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Qobilyatini aniqlash, o‘qitish, ishini yaxshi yo‘lga qo‘yishga o‘rgatadigan yaxlit tizim bo‘lmaganligi uchun, ayrim rahbar kadrlar berilgan vazifalarini eplay olmayotganligi” ko‘rsatib o‘tildi.

Albatta har qanday sohaning yuksalishi, ravnaq topishida rahbar kadrlarning o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, ta‘lim tizimini yaxshilash va zamonaviy standartlarga moslashtirishning asosini aynan rahbar kadrlar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda olib borish maqsadga muvofiqdir. Ta‘lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan aslo boshqa sohadagi islohotlardan qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Tadqiqot obyekti ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholash jarayonlari asoslarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholash jarayonlarining nazariy asoslarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Ilmiy ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholash mavzusini ilmiy - amaliy jihatdan asoslash va yoritib berish:

- ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholashga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash;

- ta‘lim tizimi sifatini oshirish va bunda rahbar kadrlar faoliyatining o‘zaro bog‘liq jihatlarini tadqiq qilish;

- O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirish va rahbar kadrlarni tanlash va ular faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tadqiq qilish;

- rahbar kadrlar faoliyatini rivojlantirishning ta‘lim sifatini oshirishga ta‘sirini tahlil qilish;

- Yangi O‘zbekiston davrida ta‘lim sifatini oshirish darajasi va o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

- rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholashni takomillashtirish, O‘zbekiston kelajagi va rivojlanishiga ta‘sirini tahlil qilish;

- ta‘lim sifatini oshirishda rahbar kadrlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish yo‘llarini asoslash;

- rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholashni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

- rahbar kadrlar orasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish orqali ta‘lim sifatini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistic usullar, empirik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini baholash mavzusi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan, ularga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan;

- ta‘lim tizimi sifatini oshirish va bunda rahbar kadrlar faoliyatining o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiq qilingan, rahbar kadrlar faoliyatini rivojlantirishning ta‘lim sifatini oshirishga ta‘siri tahlil qilingan;

- O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirish hamda rahbar kadrlarni tanlash va ular faoliyatini rivojlantirish borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar tadqiq qilingan. Yangi O‘zbekiston davrida ta‘lim sifatini oshirish darajasi va o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Rahbar kadrlarni to‘g‘ri tanlash O‘zbekiston kelajagi va rivojlanishiga keng ko‘lamdagi ta‘siri ko‘rsatib o‘tilgan hamda ta‘lim sifatini oshirishda rahbar kadrlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish yo‘llari asoslab berilgan;



- rahbar kadrlarni tanlash va faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan, rahbar kadrlar orasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish orqali ta‘lim sifatini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishi natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy taklifi va amaliy tavsiyalari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ushbu masalaga bog‘liq bo‘lgan me‘yoriy –huquqiy hujjatlarni hamda ularni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida va kasb-hunar kollejlarda “Inson resurslarini boshqarish”, “Ta‘lim sifatini oshirish nazariyasi” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, har bir o‘z ustida ish olib boruvchi, intiluvchan va tashabbuskor rahbar kadrlar uchun ilmiy-amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot ishi mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotning metodologik va nazariy asosi sifatida mamlakatimiz va chet el olimlarining ta‘lim sohasidagi asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va me‘yoriy hujjatlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil uslublari, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, monografik o‘rganish va boshqa uslublardan keng foydalanildi. Maqolada MDH va mahalliy olimlardan Kulay L.A., Jumaboyev N.R., Ahmedova S.A., Rahimjonova D.S., Suyunov D.X., Rasulova D, Qodirov T.U., Abdurahmonov Q., Qayumova N.X., Sariboyev X., Hasanboyeva O. U., Tojiyeva M.X., Rahmatullayev D., Hakimova M. singari olimlar tomonidan o‘rganilgan va ilmiy asarlar, maqolalar va qo‘llanmalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodika va uslublar tavsifi. Tadqiqotning metodologik va nazariy asosi sifatida mamlakatimiz va chet el olimlarining ta‘lim sohasidagi asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va me‘yoriy hujjatlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil uslublari, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, monografik o‘rganish va boshqa uslublardan keng foydalanildi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimida rahbar kadrlar samaradorligini oshirish, ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bugungi zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida nafaqat iqtisodiy islohotlar, balki inson kapitali va rahbarlik salohiyatini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rahbar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish ta‘lim tashkilotlarining tashkiliy hamda o‘quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish, ta‘lim tizimida rahbar kadrlar malakasini oshirish kurslarini hamda rahbar kadrlar zaxirasiga nomzodlarni maqsadli o‘qitish, ta‘lim sifatini zamonaviy talablarga muvofiq ta‘minlash uchun ta‘lim tizimi rahbar kadrlarining kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, tizimdagi kadrlar bilan bog‘liq dolzarb ilmiy muammolar, shu jumladan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, raqamli ta‘lim texnologiyalari va ta‘lim menejmenti yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, doktorantura ixtisosliklari bo‘yicha yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining ta‘lim jarayoni sifati hamda natijadorligini tizimli tahlil va monitoring qilishning raqamli axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda joriy etish, kadrlarning ehtiyojidan kelib chiqib qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejasi hamda ta‘lim dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish, rahbar kadrlarning kasbiy bilim darajasi va ularning faoliyat samaradorligini inobatga olgan holda kasbiy rivojlantirish ta‘lim dasturlarini joriy etish, malaka oshirish kurslarining o‘quv jarayoni hamda ilmiy faoliyatga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish, ilg‘or tajriba almashish borasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish asosiy oldimizdagi vazifalar hisoblanadi.



Malaka oshirishning bevosita va bilvosita shakllarini o‘zaro bir-birini to‘ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etish orqali rahbar kadrlarning mustaqil o‘zini o‘zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag‘batlantirish, shuningdek o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta‘minlash, o‘quv rejaları va dasturlari asosida kasbiy mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlarni muntazam ravishda yangilab borish kerak.

Ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash orqali rahbar kadrlarning sifatiga qo‘yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirib borilmoqda.

Ta‘lim tizimida rahbar kadrlar samaradorligini oshirishda uzluksiz malaka oshirish tizimi bevosita kasbiy rivojlanishni tashkil etishning maqbul va zarur yo‘llarini tanlash, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni doimiy yangilash imkoniyatini beradi.

Rahbar kadrlar faoliyatini reyting baholash tizimi asosida nazorat qilish samarali usul xisoblanadi. Reyting baholash ko‘rsatkichlarini va mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi huzurida Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi. U davlat xizmatchilarining shaxsiy va professional diagnostikasi, ularning kasbiy bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari va psixologik so‘rovlar o‘tkazish bilan shug‘ullanadi. Bu Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi qarorida nazarda tutilgan.

Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar asosida davlat fuqarolik xizmatchilari uchun bazaviy, alohida lavozim yoki lavozimlar guruhi uchun kompetensiyalar modeli hamda indikatorlarini ishlab chiqish;

davlat fuqarolik xizmatchilarini shaxsiy-professional diagnostika qilish, kompetensiyalar modeli asosida kompleks baholash;

kompetensiyalarni baholash jarayonida foydalanish uchun doimiy ravishda yangi uslublarni ishlab chiqish, o‘zlashtirish va joriy qilish;

kompetensiyalarni baholash natijalari asosida rahbar kadrlar uchun shaxsiy-professional rivojlanish traektoriyasini ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish;

rahbarlik lavozimiga nomzodlarning umumiy kasbiy bilimi, qadriyatları va aqliy salohiyatini aniqlash bo‘yicha test sinovlarini hamda psixologik so‘rovnomalar o‘tkazish;

rahbar kadrlar faoliyati samaradorligini baholash va monitoring qilish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni prognoz qilish, ularni saralab olish va joy-joyiga qo‘yish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni va zamonaviy usullarni keng joriy etish.

Zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta‘lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta‘lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta‘lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Prezidentimiz “islohotlar oxir-oqibat insonning hayotini, sog‘ligini, farovonligini ta‘minlashga qaratilgani va buning zamirida albatta ta‘lim yotishini, ta‘lim barcha sohalarning poydevorini yaratib berishini” doim ta‘kidlab kelgan. 2020-yilda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatda ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashning huquqiy asoslarini yaratdi.

Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta‘lim, bola huquqi sohasidagi



shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilgʻor tajribasini hisobga olish uzluksiz taʼlim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor boʻlib, uning rivojlanish omillaridandir.

Oʻtgan yillarda taʼlim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga koʻmaklashdi. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy taʼlim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda oliy taʼlim muassasalari soni koʻpayib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan taʼlim sifatini oshirishga alohida eʼtibor berilmoqda. Respublikada taʼlim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi taʼlim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital taʼmirlash barobarida ularni zamonaviy oʻquv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, oʻquv-metodik qoʻllanmalar bilan taʼminlash boʻyicha keng koʻlamli choralar koʻrilmoqda.

“Taʼlim sifatini oshirish – Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona toʻgʻri yoʻlidir. Shu bois, birinchi navbatda, eʼtiborni Yangi Oʻzbekiston uchun eng katta investitsiya boʻlgan taʼlimni qoʻllab-quvvatlashga qaratamiz”,- deya taʼkidladilar Davlatimiz rahbari.

Taʼlim tizimida rahbar kadrlar bilan bogʻliq va faoliyatni isloh etish borasida 2020-2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining taʼlim sohasiga doir yetmishdan ortiq farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatlar mamlakatimizda taʼlim tizimini sifat jihatdan tubdan oʻzgarishiga va yangilanishiga asos boʻlmoqda.

Yuqorida qabul qilingan va kelgusi yillarda amalga oshirilishi koʻzda tutilgan qaror va farmonlarning barchasi xalq taʼlimi tizimida aynan rahbar kadrlar faoliyatini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish va buning natijasida sifat samaradorligiga erishish, Oʻzbekiston nomini jahon xalqaro olimpiadalarida faxrli oʻrinlar bilan tilga olish va juda kata kuch boʻlmish yosh avlodni toʻgʻri tarbiyalash orqali farovon hayot tarziga yoʻnaltirish asosiy maqsad qilib qoʻyildi.

Rahbar va pedagog kadrlar orqali butun bir jamiyat hayotiga taʼsir qilamiz, davlatimiz reytingini yuqori pogʻonalarga olib chiqamiz. Bularning barchasi rahbar kadrlar faoliyatining samarali tashkil etilishi va oʻz faoliyati davomida toʻgʻri uslublardan foydalanishi bilan bogʻliq.

Hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning taʼlim va fan darajasiga bogʻliq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham koʻproq talablar qoʻymoqda. Zamonaviy xodimning maʼlum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda oʻzgarib va kuchayib bormoqda. Bunda “Kasbiy kompetentlik” sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va koʻnikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga boʻlgan qobiliyati, maʼlumotlilik va boshqa sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi. Taʼlim tizimi nafaqat “hayot davomida” taʼlim mexanizmi sifatida, balki iqtisodiyotning oʻzgarishlariga korxon va muassasalar kadrlar salohiyatining moslashuvchanligi va safarbarligini oshirish, doimiy shaxsiy va kasbiy takomillashishning asosiy omili sifatida namoyon boʻladi.

Dunyoga buyuk olim va mutafakkirlarni bergan yurtimizda muhtaram yurtboshimiz rahnamoligida taʼlim sifatini oshirish va ilm-fan taraqqiyotini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, shubhasiz yaqin kelajakda yuksak natijalarni beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar zahirida inson qadr-qimmatini va hayoti farovonligi mujassam. Yurtimizda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlar ham “inson qadri”



tamoyilini yanada yuksaltirish, davlat boshqaruvini samarali va natijador qilib tashkil qilishda mustahkam asos bo'ldi. Barcha sohalar qatori ta'limda ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yangi Konstitutsiyamizning 52-moddasida O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash, boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning mazmun va mohiyati ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Har qanday rivojlangan davlat uchun ta'lim tizimi muhim va hal qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Ta'lim tizimini isloh qilish uchun esa, avvalambor unga rahbarlik qilayotgan kadrlarni to'g'ri tanlay bilish va ular faoliyatini tadqiq etish lozim.

Rahbarlik faoliyati bu- boshqaruv subektining o'zi boshqarayotgan bir va bir necha ob'ektlarga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi. Umuman olganda, boshqaruv subekti rahbar bo'lsa, boshqaruv ob'ekti xodim sifatida qaraladi. Bunda rahbar o'z tasarrufidagi tashkilot va muassasa uchun qaror qabul qiluvchi va unga javobgar shaxs, xodim esa ijrochi vazifasini bajaradi. Rahbarlik asosida rejalashtirish, muvofiqlashtirish va kommunikativ boshqaruv jarayonlari yotadi. Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlar majmuini maqsadga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish, eng avvalo rahbar zimmasiga yuklanadi. Rahbar kadrlar samaradorligini oshirish va joy-joyiga qo'yishni takomillashtirish davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Shu bilan birga, har bir ta'lim dargohida yuqori malakali pedagoglar jamoasini shakllantirish muammosi xalq ta'limi tizimining hal qilinishi lozim bo'lga eng murakkab muammolaridan biridir. Kerakli, shijoatkor, intiluvchan rahbar kadr va pedagoglarni tanlash, ular faoliyatini baholashning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish, pedagog xodimlarni joy-joyiga qo'yishni samarali texnologiyalarini ishlab chiqish masalalarini hal qilishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda rahbar kadrlar samaradorligini oshirish va ular faoliyatini baholash orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohada yangidan-yangi izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarimiz uchun ko'plab shart-sharoit va qulayliklar, imtiyoz va preferentsiyalar berilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Bu tizimning asosiy bo'g'ini sifatida faoliyat olib borayotgan rahbar kadrlar esa, ana shu islohotlar asosini tashkil etadi.

Maktablarda zamonaviy boshqaruvni joriy qilish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Endilikda maktab direktorlarini lavozimga tayinlash bevosita mahalliy kengashlar bilan kelishilgan holda, tanlov asosida amalga oshiriladi. Har bir nomzod maktabning ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish o'z dasturi bilan tanlovda ishtirok etadi. Shuningdek, har yili kengashlar oldida hisobot beradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa bitta - maktablarning samarali faoliyatini tashkil etish, direktorlar ishiga noqonuniy aralashuvlar va kadrlar qo'nimsizligiga barham berish.

Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi hamda e'tiborini tubdan o'zgartirish, ularning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligini mehanizmi kiritilmoqda. Reytingda birinchi beshlikka kirgan direktorlarga mahalliy budjetdan ustama to'lanadi. Xususan, maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlariga mehnatga haq to'lash eng kam miqdori 3 baravaridan 12 baravarigacha rag'batlantiruvchi to'lovlar beriladi. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limi rahbari va metodisti, maktab direktorlari, tumanda reytingda birinchi va



ikkinchi o‘rinni egallagan maktablarning 2 nafar ilg‘or o‘qtuvchisiga kasaba uyushmalari tomonidan har yili sihatgohlarga 2 haftalik bepul yo‘llanma beriladi.

Albatta, rahbar kadrlar o‘z vazifalarini fidoiylilik bilan bajarsalar, xodimlar o‘rtasida kelishmovchilik va nizolar, ortqcha muammoli vaziyatlar yuzaga kelmaydi. Rahbar kadrlarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

-strategik funksiya; vaziyatni tahlil qilish va tashkilotning maqsadlarini prognoz qilish asosida strategiyani ishlab chiqish jarayonini muvofiqlashtirish va rejalarini tuzishdan iborat. Oddiy sharoitlarda u asosiy hisoblanadi;

-innovatsion funksiya; ilmiy texnik inqilobning yangi bosqichining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir rahbar kadr zamonaviy - innovatsion texnologiyalardan birinchilardan bo‘lib xabardor bo‘lishi va o‘z xodimlarini ularning eng so‘ngilari bilan ta‘minlashga harakat qilishi kerak;

-ma‘muriy funksiya; yana bir asosiy vazilardan bo‘lib, barcha kichik funksiyalar jamlanmasini o‘z ichiga oladi. Birinchi navbatda, tashkilot faoliyatining oraliq va yakuniy natijalarini baholash, unga zarur tuzatishlar kiritishdan iborat;

- tashkiliy funksiya; faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq; vakolatlar, vazifalar va resurslarni xodimlar o‘rtasida taqsimlash, ko‘rsatmalar berish, o‘qitish, malakasini oshirish va boshqalar;

-rag‘batlantiruvchi funksiya; xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, ishontirish va ilhomlantirish, ularni muvaffaqiyatli bajarilgan ish uchun mukofotlash hamda notog‘ri xatti-harakatlari uchun jazolashga qaratilgan harakatlarni o‘z ichiga oladi;

-ijtimoiy funksiya; bu rahbarlik tashkilotda qulay axloqiy va psixologik muhitni, qulaylik muhitini yaratadi, mavjud an‘analar va xatti-harakatlar standartlarini saqlab qoladi va yangilarini takomillashtiradi, qiyin vaziyatlarda xodimlarga yordam beradi;

-aloqa funksiyasi; axborotlashgan davrda eng muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ma‘lumot va yangiliklardan xodimlarni vaqtida xabardor qilish, elektron xatlar, qo‘ng‘iroqlarga javob berish, yig‘ilishlar o‘tkazish.

Har bir tashkilot rahbarlarining vazifalari o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nihoyatda murakkab va xilma-xil bo‘lib, chuqur va har tomonlama bilim, tahliliy ko‘nikma, ayniqsa, notiqlik mahoratini talab etadi.

Huquqiy nuqtai nazardan, asosiy rahbarlik vazifalariga qonun, nizom va boshqa hujjatlarda belgilangan doirada ishni tashkil etish kiradi.

Bularning barchasi juda muhim bo‘lib, amalda nafaqat xodimlar rahbarga, balki rahbarning o‘zi ham ko‘p jihatdan amalda xodimlarga, ularning bilimiga, ishlash layoqatiga, uning ko‘rsatma va buyruqlarini bajarishga tayorligiga ham bog‘liqdir.

Shuni ta‘kidlab aytish joizki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ham farzandlar tarbiyasi va ma‘naviy kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Demak, ana shu maskan mudiralari tanlovi va faoliyati ham o‘z navbatida talab darajasida bo‘lishini taminlash zarur. Albatta yurtimizda bu borada ham yetarlicha yangilik va islohotlar olib borilmoqda.

Ta‘lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko‘tarish, shuningdek uzluksiz ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilgan.

Bugungi axborot asri, tezkor davr faoliyatimizga yangi uslublarni joriy qilishni, o‘z ustimizda ishlab, zamon bilan hamnafas bo‘lishni talab etadi. Qolaversa, farzandlarimizning aqliy rivojlanishi, talab va xohishlari kengaymoqda. Ularning bilimini yanada boyitish, ilm-malaka borasidagi talablariga



munosib javob qaytarish uchun pedagog tinimsiz izlanish va o'rganishda bo'lishi lozim. Ta'lim sohasi vakillarining kasbiy o'sishi, malakasini oshirib borishi uchun davlat tomonidan g'amxo'rlik qilinishi pedagoglarga katta qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-setabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni va "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori;
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi RF-134-son Farmoni;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 415-son qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni;
7. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali;
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi;
9. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti.

